

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA UNING O'ZBEKISTON EKOLOGIYASIGA TA'SIRI

Safarova Xolida Baxrom qizi

*TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi
akademik litseyning 1.1 guruh talabasi*

Annotatsiya: *Global iqlim o'zgarishi XXI asrning eng muhim ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalaridan biri bo'lib, butun dunyo miqyosida o'zgarishlarga olib kelmoqda. Iqlimning isishi va o'zgarishi tufayli tabiiy resurslar, ekosistemalar va aholi turmush tarziga tahdidlar kuchaymoqda. O'zbekiston o'zining quruq va yarim quruq iqlimi, qishloq xo'jaligi uchun bog'liq bo'lgan suv resurslari va iqtisodiy rivojlanishning qator jihatlari bilan iqlim o'zgarishining ta'siriga duchor bo'layotgan davlatlardan biridir. Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishining O'zbekiston ekologiyasiga ta'siri, uning asosiy sabablari va ta'sirlarini tahlil qilish, shuningdek, kurashish va yechim topish choralari ko'rib chiqamiz.*

Tayanch iboralar: iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi, suv tanqisligi va quruqlik, haroratning ortishi, biologik xilma-xilliklarni yo'qolishi, suvni tejash, o'rmonlarni qayta tiklash.

Iqlim o'zgarishi, asosan, inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan zararli gazlarning atmosferaga chiqishi tufayli yuzaga keladi. Karbonat angidrid, metan, azot oksidi kabi gazlar, quyoshdan kelgan energiyaning Yer yuzasidan qaytishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa haroratning oshishiga olib keladi. Havodagi zararli gazlarining asosiy manbalari quyidagilar: 1. *Sanoat va Energetika:* Fossil yoqilg'ilarini yoqish, ko'mir, neft va tabiiy gazni ishlab chiqarish atmosferaga ko'plab zararli gazlarni chiqaradi. 2. *O'rmonlarning kesilishi:* o'rmonlar tabiiy ravishda karbonat angidridni so'rib, havodagi zararli gazlarni kamaytiradi. Ammo o'rmonlarning kesilishi bu jarayonni to'xtatadi, natijada atmosferada tabiat va inson hayoti uchun xavfli bo'lgan gazlar miqdori ortadi.

Davlatimiz o'zining qulay geografik joylashuvi bilan ajralib turadi. Ammo geografik joylashuv qishloq xo'jaligi va suv resurslariga bog'liqligi sababli, so'nggi yillarda yurtimiz iqlim o'zgarishidan jiddiy zarar ko'rmoqda. Jumladan, O'zbekistonning asosiy suv manbalaridan biri bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining oqimi muzliklar va qor qoplamalarining kamayishi sababli qisqarmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, so'nggi 10 yillikda O'rta Osiyo mintaqasida suv oqimining 10-15% ga kamayishi kuzatilgan. Bu esa qishloq xo'jaligida suv tanqisligini kuchaytirib, hosildorlikni pasaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi. Shuningdek, iqlim o'zgarishi va noto'g'ri suv siyosati Orol dengizining qurishiga olib keldi. Bu hududda hosil bo'lgan tuzli chang bo'ronlari nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni davlatlar

ekologiyasiga ham zarar yetkazmoqda. Havodagi tuz va kimyoviy moddalar aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Havo haroratining oshishi ham O'zbekistonga sezilarli darajada ta'sir qilmoqda. So'nggi 50 yil davomida O'zbekistonda o'rtacha yillik harorat 1,5-2 gradusga oshgan. Bu qurg'oqchilik va tuproq eroziyasini kuchaytirib, cho'llanish jarayonini jadallashtirmoqda. Ayniqsa, Qizilqum va boshqa cho'l hududlarida bu jarayon sezilarli darajada tezlashgan. Haroratning oshishi, o'z navbatida, ekinlar hosilini kamaytiradi va paxta, g'alla kabi asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetishtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga olib keladi, chunki agrar sohasi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog'idir. Ushbu dolzarb jarayon o'simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Qurg'oqchilik va haroratning ortishi ba'zi hayvon va o'simlik turlarining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Bu ekologik muvozanatni buzadi va barqaror rivojlanishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha yondashuvlari

O'zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun bir qator choralar ko'rmoqda. *Birinchi*dan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, O'zbekistonda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish mumkin. Bu atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi va energiya xavfsizligini oshiradi. *Ikkinchi*dan, O'zbekistonda suv resurslarini tejash va samarali ishlatish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va suvni tejovchi texnologiyalarni, masalan, tomchilatib sug'orish usulini qo'llash orqali qishloq xo'jaligida suvdan unumli foydalanish imkoniyatlari yaratildi. *Uchinchi*dan, o'rmonlarni himoya qilish choralari va ko'chat ekishga yo'naltirilgan ishchi guruhlar faoliyati cho'llanishni kamaytiradi va tabiiy muhitni yaxshilaydi. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda Orol bo'yi hududlariga katta e'tibor qaratish lozim. Yurtimizda yashil hududlarni kengaytirish tashabbusini ilgari surish maqsadida rasman 2025-yil "Atroq muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.

Xulosa. Global iqlim o'zgarishi O'zbekiston ekologiyasiga katta tahdid solmoqda. Iqlimning isishi va resurslarning kamayishi qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti va biodiversitet (biologik xilma-xillik)ga jiddiy zarar yetkazadi. Ammo har birimiz ekologik muammolarni kamaytirishga hissa qo'shsak, kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror atrof-muhitni ta'minlashimiz mumkin. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun O'zbekiston hukumati samarali chora-tadbirlarni amalga oshirayotgan bo'lib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suvni tejash va ekosistemalarni himoya qilish kabi muhim sohalarga sarmoya kiritmoqda. Kelajakda iqlim o'zgarishining ta'sirlarini kamaytirish uchun xalqaro hamkorlik va ichki strategiyalarni yanada kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolibov.SH. *Iqlim o'zgarishi va uning ekologiyaga ta'siri*. Renaissance Journal (2024).
2. Iqlim o'zgarishi va salomatlik (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti). (2020-yil).